MAHALLIY BUDJETDA MOLIYANING TARKIBIY TUZILISHI

Xudoynazarov Akmal Tog‘ayevich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Received: 13.09.2025
Revised: 14.09.2025
Accepted: 15.09.2025
Kalit so‘zlar:
mahalliy budjet, moliyaviy boshqaruv, tarkibiy tuzilma, daromadlar va xarajatlar, byudjet resurslari, iqtisodiy samaradorlik, byudjet siyosati, moliyaviy barqarorlik.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida mahalliy budjet tizimidagi moliyaning tarkibiy tuzilishi, uning asosiy elementlari va funksional yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Mahalliy darajadagi moliyaviy boshqaruv, byudjet mablag‘larini shakllantirish va taqsimlash mexanizmlari, shuningdek, resurslardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, maqolada mahalliy byudjetlarning iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni va ularni modernizatsiya qilish bo‘yicha tavsiyalar keltiriladi.

XX asrning oxirlarida butun dunyo miqyosida davlat qurilishi va uning boshqaruvini demokratik tamoyillar asosida rivojlantirish jarayonlari jadallashdi. Dunyoning juda ko‘plab mamlakatlarida demokratik davlat qurilishining ajralmas tarkibiy qismlaridan biri, mamlakat aholisi tomonidan erkin saylanish asosida barpo etilgan vakillik organlari orqali boshqariladigan mahalliy o‘z – o‘zini boshqarish tuzilmalari hisoblanadi. Xududiy vakillik va ijroiya organlari amaldagi qonunchilikka asosan, o‘z zimmalariga yuklatilgan funksiyalarni o‘z vaqtida hamda belgilangan muddatlarda bajarishlari uchun ular ma’lum mulkiy hamda moliya – budjet vakolatlari bilan ta’minlanadi.

Hozirgi zamonda jamiyatdagi demokratik o‘zgarishlar amalga oshirilayotgan davrda har bir mamlakatda davlat moliya tizimining eng muhim va ajralmas tarkibiy qismi hisoblangan mahalliy moliyaning ahamiyati o‘sib boradi. Mahalliy moliya o‘z tarkibiga mahalliy budjetlar (bizning respublikamizda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shaxri, viloyatlar,

tumanlar va viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlar budjetlari) va ma’lum xududda faoliyat ko‘rsatayotgan turli mulkchilik shaklidagi xo‘jalik yurituvchi subektlarning xududiy ehtiyojlarini qondirish uchun sarflanayotgan moliyaviy resurslarni oladi. Mahalliy budjet ushbu xududda istiqomat qiluvchi aholiga ijtimoiy – madaniy va turli kommunal – maishiy xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq keng doiradagi tadbirlarni o‘z muddatida moliyalashtirishni ta’minlaydi. Rossiyalik taniqli iqtisodchi olim, i.f.d. akademik Polyak G.B.ning fikricha «xududiy budjet – bu iqtisodiy munosabatlar tizimidan iborat bo‘lib, uning yordamida xududlarni iqtisodiy – ijtimoiy rivojlantirish uchun milliy daromadni va pul fondlarini taqsimlash va qayta taqsimlash amalga oshirilib, ulardan foydalanish jarayoni yo‘lga qo‘yiladi» (G.B.Polyak. Territorialniye finansi. Ucheb. Posobiye. -M.: «VZFEI». - 2006. - 341S.).

Shuni ta’kidlash lozimki, xorijiy iqtisodiy adabiyotda «mahalliy moliya» va «xududning moliyaviy potensiali» degan atama mavjud. Ayrim iqtisodchilar ushbu atamalarni chalkashtirib yuboraveradilar. Biz ushbu ilmiy izlanishimizda ushbu atamalarni kengroq yoritishga harakat qilamiz.

Bizning fikrimizcha «xududning moliyaviy potensiali» o‘z mohiyatiga ko‘ra «mahalliy moliya»ga nisbatan kengroq ahamiyatga ega. Bizning fikrimizcha, «xududning moliyaviy potensiali» o‘z tarkibiga quyidagilarni oladi:

- mahalliy budjet va turli davlat maqsadli jamg‘armalari;
- mahalliy davlat organlarining muomalaga chiqargan qimmatli qog‘ozlari;
- xududda faoliyat ko‘rsatayotgan turli mulkchilik shaklidagi xo‘jalik subektlarining moliyaviy potensiali;
- xududda istiqomat qiluvchi aholining ixtiyoridagi naqd pul, tijorat banklaridagi turli omonatlari va qimmatli qog‘ozlar;
- xududda joylashgan bank – kredit tashkilotlarining moliyaviy resurslari, shu jumladan, tijorat banklari tomonidan o‘zga xududlardan jalb

etilgan mablag‘lar.

O‘z mohiyatiga asosan, «mahalliy moliya» «xududning moliyaviy potensiali»dan farqli ravishda, ma’lum muddat davomida mavjud moliyaviy potensialdan bevosita foydalaniladigan moliyaviy resurslardaniboratdir.

Dunyoda so‘nggi o‘n yillarda iqtisodiyoti bozor munosabatlariga o‘tayotgan ko‘plab mamlakatlarda iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni mahalliylashtirish kuzatilmoqda. Ushbu jarayonlarni boshqarish fuksiyalari markaziy (federal) hokimiyatdan xududiy davlat boshqaruv organlari ixtiyoriga o‘tkazilmoqda. Ushbu omil asosida mahalliy moliyaningsohalari jadal sur’atlar bilan kengaymoqda. Shu sababli mahalliy moliyaning miqdori ko‘payib, ko‘plab mamlakatlarda uning ulushi davlat moliyaviy resurslarining juda katta qismini tashkil etmoqda.

Mahalliy budjet orqali davlat mamlakatda faol ijtimoiy siyosatni amalga oshirmoqda. Hozirgi davrda ko‘plab mamlakatlarda xalq ta’limi, sog‘liqni saqlash, aholiga kommunal xizmatlar ko‘rsatish, avtomobil yo‘llarini qurish va ularning xolatini saqlab turish bilan bog‘liq barcha harajatlar mazkur xududiy davlat hokimiyat organlarining budjetlariga zarur mablag‘larni ajratish orqali to‘liq moliyalashtirilmoqda. Shuni ta’kidlash lozimki, mahalliy moliya orqali moliyalashtirilgan tadbirlar doirasi muntazam kengayib bormoqda. Hozirgi vaqtda ko‘plab mamlakatlardamahalliy budjetlar hisobidan nafaqat umumta’lim maktablari, balki, oliy va o‘rta maxsus ta’lim yurtlari, sog‘liqni saqlashning yirik obyektlari, xuquq-targ‘ibot, ichki xavfsizlik, atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqa tadbirlar ham moliyalashtirilmoqda.

Shunisi diqqatga sazovorki, markaziy va mahalliy davlat organlari mahalliy budjet yordamida mamlakat turli xududlarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasini tenglashtirishni (yoki o‘rtadagi farqni qisqartirishni) amalga oshiradi. Bunga asosiy sabab shuki, geografik, tarixiy, demografik va boshqa bir qator omillarga ko‘ra, alohida olingan mamlakatning ayrim xududlari

iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotda ilgarilab ketgan bo‘lsa, buning aksi, ayrim xududlar iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotda ortda qolgan. Yuzaga kelgan ushbu salbiy xolatni bartaraf etish yoki oradagi farqni imkon darajasida qisqartirish maqsadida mamlakat markaziy hukumati tomonidan maxsus mintaqaviy dasturlar ishlab chiqiladi. Ushbu maxsus dasturni amalga oshirish uchun zarur pul mablag‘lari tegishli ma’muriy-xududiy birliklarning mahalliy budjetlari daromadlari bilan bir qatorda, yuqori darajadagi budjetlar (federal yoki respublika budjetlari) tegishli soliqlari hisobidan ham ajratiladi. Bunday xolatda tegishli xududiy budjetlarga ba’zi bir umumdavlat (federal) soliqlarining ayrimlaridan ajratmalar ajratish bilan bir qatorda, subvensiyalar ham beriladi, ya’ni ishlab chiqilgan dasturga asosan, aniq maqsadlarga (sog‘liqni saqlash, maorifni rivojlantirish, yo‘l qurilishi, kommunal xizmat obyektlari va boshqalar) federal (respublika) budjetidan moliyaviy mablag‘lar ajratiladi. Yevropa Ittifoqiga a’zo iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar tomonidan unga yangi a’zo mamlakatlarda (Bolgariya, Vengriya, Polsha, Ruminiya) ishsizlikni tugatish maqsadida ishsizlarni qayta tayyorlash harajatlariga maxsus fondlar orqali moliyaviy mablag‘lar ajratiladi. Agarda xududlarning iqtisodiy- ijtimoiy taraqqiyot darajasi bo‘yicha O‘zbekistonga taqqoslasak, ayniqsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Sirdaryo va Jizzax viloyatlaridagi ahvol nisbatan boshqa xududlardan ortda qolgan. Ushbu qoloqlikni tugatishda esa biz yuqorida ta’kidlagan omilning qo‘llanishi ijobiy samara bergan bo‘lardi.

Biz ilmiy tadqiqotimizda ta’kidlab o‘tganimizdek, mahalliy moliya mohiyatiga ko‘ra xududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish uchun foydalaniladigan pul mablag‘lari yig‘indisidir. Xalqaro amaliyot shundan dalolat beradiki, mahalliy moliyadan foydalanishning bosh yo‘nalishi ijtimoiy himoyani va qisman esa, ishlab chiqarish infratuzilmasini zarur moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minlashdan iboratdir. Rossiya Federatsiyasida ijtimoiy-madaniy tadbirlar harajatlari o‘lka, viloyat va shaharlar budjetida jami harajatlarning 30,0 foizidan

50,0 foizigacha tashkil etsa,tuman, posyolka hamda qishloq budjetlarining jami harajatlari 60,0 foizdan 80,0 foizgacha tashkil etadi (G.B.Polyak. Territorialniye finansi. Ucheb. Posobiye. -M.: «VZFEI». - 2006.- 371 S.).

Xalqaro amaliyotda mahalliy moliya tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

- mahalliy budjetlar (bizning misolimizda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar budjeti);

-xo‘jalik yurituvchi subektlarning moliyasi (ushbu subektlarga mahalliy hokimiyatga tegishli korxonalar, uning moliyaviy resurslari va ushbu xududda joylashgan turli mulkchilik shaklidagi xo‘jalik subektlarining moliyaviy resurslari kiradi);

- oilaviy xo‘jalik moliyasi (ushbu subektlarga mazkur xududda joylashgan xususiy mulkchilikka asoslangan firmalar hamda oilalarning moliyaviy resurslari kiradi);

- turli xududiy budjetlardan tashqari jamg‘armalar (ko‘plab mamlakatlarda turli xududiy budjetdan tashqari jamg‘armalarshakllantirilishi qonunan ko‘zda tutilgan).

Biz yuqoridagilarga asosan, ilmiy izlanishimizning quyidagi rasmida mahalliy moliya tarkibini keltiramiz.



1-rasm. Mahalliy moliya tarkibiy tuzilishi

Biz quyida mahalliy moliyaning tarkibiy qismlarini kengroq ochib berishga harakat qilamiz.

Mahalliy budjetlar. Biz yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek dunyoning turli davlatlarida budjet tizimi mazkur davlatning siyosiy – ma’muriy tuzilmasiga asosan shakllantirilgan. Shunga asosan turli davlatlarda mahalliy budjetlarga turli xil budjetlar kiritiladi. Federativ davlatlarda (AQSH, Rossiya, Hindiston, Germaniya) mahalliy budjetlarga xududiy (respublikalar, shtatlar, viloyatlar va shaharlar) va mahalliy budjetlar kiritiladi. Unitar davlatlarda (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston) mahalliy budjetlarga viloyat va shaharlarbudjetlari kiritiladi.

Mahalliy budjet – davlat budjetining tegishli viloyat va shahar pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutilgan budjetdir. Hozirgi zamonaviy sharoitlarda xududiy davlat organlari o‘zlari boshqarayotgan xududlarda unikompleks rivojlantirish, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarini oqilona uyg‘unlashgan tarzda rivojlantirishni amalga oshirishlari lozim. Hozirda xududiy davlat organlarining xududni iqtisodiy – ijtimoiy rivojlantirishdagi muvofiqlashtirish (koordinatsiya) funksiyasining ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu omil esa xududdagi mavjud moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanish usullarini yanada takomillashtirish muammosini ijobiy xal etish uchun xududiy davlat organlarining moliyaviy bazasini kengaytirish hamda uni kuchaytirishni taqazo etadi. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, mahalliy budjetlar harajatlari tarkibida ijtimoiy – madaniy tadbirlarni moliyalashtirish harajatlari asosiy salmoqni egallaydi. O‘zbekiston Respublikasida davlat budjetining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, budjet tarkibida ijtimoiy harajatlar yuqori ulushining saqlanib qolinishidir, bu zaruriyat mamlakat aholisi tarkibida mexnatga

layoqatsiz aholi ulushining yuqoriligidan kelib chiqadi. Bunda mamlakatimizdagi murakkab demografik vaziyat hisobga olinadi, aholi soni o‘sishining yuqori sur’atlari va aholi tarkibida yoshlarning katta ulushni tashkil etishi, budjetdan ijtimoiy sohalarga mablag‘lar sarflash ko‘rsatkichiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xasanov, B. T. (2021). *Mahalliy byudjetlarni boshqarish va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari*. Toshkent: Iqtisodiyot va moliya nashriyoti.
2. Yo‘ldoshev, A. M. (2020). Mahalliy moliyaviy resurslarni shakllantirishda budjet siyosatining o‘rni. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 4(2), 58–64.
3. Qodirov, N. Sh. (2019). *Davlat moliyasi: nazariya va amaliyot*. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.
4. Musayev, M. A. (2022). Mahalliy budjet daromadlari va xarajatlarining tahlili. *Moliyaviy iqtisodiy tadqiqotlar* jurnali, 6(1), 33–39.
5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2023). *Mahalliy budjetlar bo‘yicha yillik hisobot*. Toshkent: Moliya vazirligi nashriyoti.